

QISHLOQ HUDUDLARININGNING RIVOJLANISH SAMORADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI

Saburova Nasiba

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya: *Qishloq hududiy tizimlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligini baholash istiqbolli yondashuv hisoblanadi. Bu iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning murakkab o‘zaro ta’sirini har tomonlama tushunish imkonini beradi, bu esa yanada oqilona qarorlar qabul qilishga olib keladi.*

Mazkur tadqiqotda qishloq joylarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligiga ta’sir etuvchi ko’rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlar o‘rganildi. Shuningdek, qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni modellashtirishning funksional tuzilmasi, strukturaning blokli modelini ishlab chiqish masalalari ham ko’rib chiqildi. Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishi chiziqli regressiya modellari asosida tahlil qilindi.

Kalit so’zlar va iboralar: *ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, blok modeli, qishloq xo’jaligi sektorining o’sishi, ko’rsatkichlar.*

KIRISH

Qishloqni ijtimoiy qayta qurish muammosi respublika oldida turgan masalalar kompleksining eng yirigi bo‘lib, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu muammo, ayniqsa, qishloq aholisining doimiy o‘sishi sharoitida juda dolzarb bo‘lmoqda. Bugungi kunda qishloq ijtimoiy taraqqiyotida shahardan ancha orqada qolmoqda va xulosa bitta - qishloq aholisining turmush darajasini tubdan yaxshilash muammosini amaliy hal etishning samarali yo’llari va vositalarini topish kerak. Faqat bu holda hudud qishloq xo’jaligi iqtisodiyotini yanada rivojlantirish masalalarini yechish talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” Strategiyasi” to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23-oktabr 2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo’jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2023 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 11.XI.2020 yil 4889-sun qarorlarida hududlar qishloq xo’jaligi iqtisodiyotini yanada rivojlantirish masalalarini ko’rsatildi[1,2,3].

METODLAR

Turli darajadagi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash mezonlari tabiiy muhit va ishlab chiqarish, moddiy boylik darajasi saqlanishida “aholi sifati” qo’rsatkichini hududning rivojlanishini baholash mezoni sifatida taklif qilish mumkin. Buning uchun hududda yashaydigan aholining sifat darajasi koeffitsiyentini hisoblash lozim. Koeffitsiyent quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$K_H = 1 - \frac{\Delta N}{N}, \quad (1.1)$$

5-Mart, 2025-yil

bu yerda, N - joriy yilda aholiing tabiiy o’sish soni;

ΔN - tabiiy o’sishda fiziologik nuqsonli aholi soni.

Agar aholi ko‘payishi baland bo‘lsa, ya’ni $K_H(t) \rightarrow 1$ ga intilsa, u holda aholining sifat darajasini o‘lchash uchun qo‘payishning o‘rtacha koeffitsiyenti ishlatalishi mumkin, ya’ni:


$$J_{sr}(t) = \frac{1}{N} \sum J_j(t), \quad (1.2)$$

bu yerda, $J_j(t)$ - aholining j-jinsi guruhiga kiruvchi aholining ko‘payishi intellektual koeffitsiyenti.

Aholining sifat koeffitsiyenti va o‘rtacha intellekt koeffitsiyentining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi dinamikasi - bu ko‘payishning rivojlanish yo‘nalishini ko‘rsatadi va sabablarni o‘z vaqtida tahlil qilishga va zarur qarorlarni qabul qilishga, ya’ni aholining o’sishini boshqarishga imkon beradi [46/1]. Taklif etilayotgan mezonning mohiyati - aholi soni va uning sifati zarur moddiy tovarlarni ishlab chiqarish insonlarning tabiiy yashash muhitni ko‘rsatkichlarining yomonlashishiga olib kelmaydigan darajada saqlanishi kerak. Bunday modelni amalga oshirish uchun aholi, tabiiy muhit, ishlab chiqarish tizimlari yaratilishi zarur. Bunday tizimlarning tarkibiy qismi mahalliy va hududiy tizimlar bo‘lishi kerak, chunki bu tizimlar tovar ayirboshlash va takror ishlab chiqarishda o‘zaro bog‘liq. Shundan kelib chiqish bilan hududiy rivojlanish modeli quriladi. Uning asosiy sharti tabiiy muhitni saqlab qolish va bu hududda zarur bo‘lgan yashash sifatini ta’minlash hisoblanadi.

Ushbu takliflarni amalda qo‘llash tabiiyki, yashash sifati va iqtisodiy o’sishga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlarga chiqishni ta’minlaydigan ko‘rsatkichlar tizimi asosida hisob-kitoblar uchun modellar tizimi ishlab chiqilishi kerak. Shu munosabat bilan biz ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning modellarini ishlab chiqish uchun hududiy tizimlar unsurlarini tuzilmalashtirishga harakat qilindi. Shuning uchun mavjud hududlar katta, o‘rta va kichik qishloq hududlariga bo‘lindi. Katta hududlar - bu viloyatlar yoki mintaqalarning hududlari (2-3 viloyatlar), o‘rtacha hududlar - ma’muriy tumanlar, areallar yoki mikrozonalar hisoblanadi. Kichik qishloq hududlari - bu mulkchilik shaklidan qat’i nazar, qishloq xo‘jalik majmuasi yoki boshqa tarmoqlarning turli xil ishlab chiqarish turlari to‘plangan bir yoki bir necha fermer xo‘jaliklarining hududlari hisoblanadi. Ba’zi hollarda kichik qishloq joylari qishloq kengashi hududlari bilan mos keladi.

Shularni hisobga olib qishloq hududiy tizimlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish uchun tadqiqotda tabiiy muhit unsurlari, ishlab chiqarish va aholi o‘rtasidagi munosablarning o‘zaro bog‘liqligining prinsipial chizmasi ishlab chiqildi (1.1-rasm).



1-rasm. Hududiy tizimlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minovchi unsurlarning o‘zaro bog‘likligi chizmasi.

Har qanday hududda uchta o‘zaro bog‘liq tizimlar - tabiat, aholi, ishlab chiqarish tizimlari mavjud. Aholi tabiatning bir qismi sifatida, tabiat unsurlari bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi va mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va ayni paytda ularning iste’molchisi ham hisoblanadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2022 yilda O‘zbekiston Respublikasi aholisi 36,0 milliondan ko‘pni tashkil etdi, shundan 17,6 million kishi - shaharliklar, 18,8 million kishi - qishloq aholisi bo‘ldi¹. Shahar va qishloq aholisi 1980 yildan boshlab nisbatli barqarorlashdi (49:51). Shu bilan birga ularning mutlaq o‘sishi kuzatilmoqda.

O‘zbekistonda 2022 yillarda umr ko‘rish davomiyligi hisob-kitoblarga ko‘ra 75,6 yoshni tashkil qildi, shu jumladan erkaklar - 73,1 va ayollar – 78,0 yoshni tashkil qildi. Yoki 2010 yilga nisbatan 2022 yilda ayollar umr ko‘rishi 2,9 va erkaklar yoshi esa 2,5 ga uziygan (1-jadval).

1- jadval

O‘zbekistonda aholining umr ko‘rish davomiyligi (bir yilda, yosh)

	2010	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2022
Jami	73,0	73,1	73,1	73,1	73,6	73,8	73,7	71,6	75,1	75,6
ayollar	75,1	75,5	75,8	75,8	76,0	76,2	76,1	77,0	77,4	78,0
erkaklar	70,6	70,7	71,1	71,1	71,2	71,4	71,3	72,3	72,8	73,1
Shaxar aholisi	73,1	73,2	73,6	73,5	74,0	74,5	74,4	75,4	75,8	76,2
ayollar	75,7	76,0	76,0	76,2	76,8	77,1	77,1	78,0	78,3	78,6
erkaklar	70,4	70,4	71,0	70,8	71,3	71,8	71,7	72,6	73,2	73,8
Qishloq axolisi	72,7	72,8	73,1	73,2	73,0	73,0	72,8	73,8	74,2	74,9
ayollar	74,5	74,7	75,1	75,2	75,0	74,9	74,8	75,7	76,2	77,0
erkaklar	71,0	71,0	71,3	71,3	71,0	71,1	71,0	71,9	72,4	72,7

¹ ЎзР Президенти қошидаги Статистика агентлиги маълумотлари.

Manba: Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ushbu 1-jadval ma’lumotlari ko‘rsatib turibdiki, yaqin kelajakda O‘zbekiston Respublikasi aholisining miqdoriy o‘sishi "sifatli" o‘sish bilan birga bo‘lishi kerak. Buning uchun hududlarda demografik jarayonlarni o‘rganish va rivojlantirish tizimi yaratilishi kerak. Bu tizimda aholi sonini (V_1), ularning yoshini (V_2), jins yoshiga oid tuzilmasi (V_3) va boshqalar o‘lchanadi. Ular mehnat resurslari, aholining oziq-ovqat, uy-joy, tovar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini prognoz qilish, shuningdek ularning daromadlari va xarajatlarini tadqiq qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston tabiatining o‘ziga xos xususiyati uning issiq iqlimi bo‘lib, bu sug‘orishdan foydalanishni ham ko‘zda tutadi. Shu bilan bir vaqt, ko‘plab madaniy ekinlar issiqlikni sevuvchi hisoblanadi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligining rivojlantirish uchta omillar - sug‘orishga yaroqli yerlarning mavjudligi (A_1), suv resurslari (A_2) va vegetatsiya davrining davomiyligiga (A_3) bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasining yer maydoni 44832,4 ming getktarni tashkil etadi. Ularning 26233,3 ming getktari qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan foydalaniladi². 2021 yilda respublikada toza suv iste’moli 52,4 kub.kmni tashkil etdi, shundan 44,4 kub.km suv sug‘orish va qishloq xo‘jaligini suv bilan ta’minalash uchun ishlatilgan.

Sug‘oriladigan yerlar eng qimmatli bo‘lib, ular 4336,1 ming getktarni yoki O‘zbekiston Respublikasining umumiylar maydonining 9,6 foizini tashkil etadi, shundan 3242,1 ming getktari ekin maydonlari hisoblanadi.

Qoraqalpog‘istonda sug‘oriladigan ekin yerlari 418,8 ming getktarni tashkil etadi. Hujayli tumanida qishloq xo‘jalik yerlarining 21,2 ming getktari yoki 48,8% sug‘oriladigan yerlar bo‘lib, uning 19,7 ming getktari ekiladigan ekiladigan maydonlar hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish va binobarin, aholini oziq-ovqat bilan ta’minalash, moddiy va ijtimoiy holati yer va suv resurslarining holati va hajmlariga bog‘liq. Shuning uchun ular bu hududda yashovchi insonlarning normal hayoti va faoliyat uchun yaroqli bo‘lib qolishi kerak. Tabiiy muhitga inson ta’sir uning imkoniyatlaridan oshmasligi kerak, ya’ni ayniqsa, qishloq hududlari sanoat korxonalari, birlashmagan qishloq xo‘jaligi, aholining migratsiyalanishi, suv manbalarining kamayishi va boshqalar bilan katta og‘irlik tushishini oldini olish kerak. Yuqorida ta’kidlanganidek, barqaror rivojlanishni ta’minalash uchun inson faoliyati tabiiy muhitga shunday og‘irlik yuklamani ko‘rsatishi kerakki, jamiyat tabiiy muhitdan foydalanish chegaralaridan tashqariga chiqmasin. Bularning barchasi hozirgi avlod kelajak avlodlarga yetkazadigan tabiiy resurslarning qimmati behuda sarflanmaydigan tarzda ulardan foydalanishning optimal yo‘llarini topishni talab qiladi. Buning uchun sug‘oriladigan yerlarning holatini kuzatish (yer osti suvlari darajasini, tuproqdagi gumus zaxirasini o‘lchash), oqava suvlarni tartibga solish va sug‘orish rejimini boshqarish va FARni o‘lchash uchun tizimlarni yaratish kerak. Bu tadbirlarning barchasi bir vaqtning o‘zida dalalar hosildorligini oshirishga, mahsulot birligiga sarflanadigan mablag‘larni tejashtga va ularning sifatini oshirishga yordam beradi.

² Ўзбекистон Республикаси ер фонди. Давлат кадастри палатаси. Тошкент – 2023. – 15 б.

Respublikasi aholisi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish darajasi va daromad miqdori hali ham past bo‘lib, bu aholi farovonligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Birinchi darajali vazifa respublika aholisini nafaqat oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan, shuningdek real daromad bilan ta’minlaydigan eng ratsional ishlab chiqarish tuzilmalarini topish hisoblanadi. Shuning uchun paxta tolasini ishlab chiqarishni barqarorlashtirish sharoitlarida chuqr qayta ishslash va iste’molga tayyor mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish bilan agrosanoat ishlab chiqarishining optimal tuzilmasiga o‘tish zarur. Bu, o‘z navbatida, qishloq aholisini ish bilan ta’minalash va oilalarning daromadlarini ta’minalash muammolarini yechilishiga olib keladi. Bundan kelib chiqish bilan ishlab chiqarish va iste’mol tizimida bir kishiga to‘g‘ri keladigan yakuniy mahsulotlarni (C1) ishlab chiqarish, yer birligi (C2), moddiy resurslar (C3), shuningdek aholi va oilalarning daromadlari (C4) o‘lchanishi va boshqarilishi kerak.

NATIJALAR

Xo‘jayli tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tahlili shuni ko‘rsatadiki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyotida Xo‘jayli tumani muqim o‘rin tutadi. Tuman 1927 yilda tashkil topgan. Unda hozirgi kunda 124,3 ming kishi yashaydi. Tumanda ja’mi 7 ta qishloq, 18 ta mahalla fuqarolar yig‘ini va 64 ta qishloq aholi punktlari faoliyat yuritadi.

Xo‘jayli tumani statistika boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, tumanda o‘tgan yilda yakuni mahsulotlar ishlab chiqarishi darajasi, ayniqsa O‘zbekiston hamda Qoraqalpog‘iston Respublikalari bilan solishtirganda o‘sishi yuqori ko‘rsatkichga ega (1.2-jadval). Shu bilan bircha import kamayib (31,8%), mahsulotlar eksporti esa oshmoqda (145,2%).

2-jadval

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalari hamda Xo‘jayli tumanining asosiy iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarning tahlili

Tarmoqlar	2022 yil yanvar-dekabr						
	O‘zbekiston Respublikasi		Qoraqalpog‘ iston Respublikasi		Xo‘jayli tumani		
	Mi rd. so‘m	O‘ sush su r’ati, %	M lrd. so‘m	O‘ sush sur ’ati, %	M lrd. so‘m	O‘ sush sur ’ati, %	
Sanoat	367 078,9	10 0,7	14 144,8	10 4,1	4 83,7	10 7,2	10 8,5
Iste’mol tovarlari	119 159,8	10 3,6	28 18,3	11 0,0	2 18,9	10 7,2	10 5,0
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	224 265,9	10 3,0	10 443,7	10 2,5	5 28,6	10 5,0	10 2,0
Asosiy kapitalga investitsiyalar	202 000,1	91, 8	81 67,4	80, 4	2 00,2	11 2,0	11 7,0
Qurilish ishlari	878 23,8	10 9,1	37 85,9	10 1,5	2 24,1	10 7,0	

5-Mart, 2025-yil

Chakana aylanmasi	tovar	194 843,5	10 3,2	66 04,6	10 2,4	6 67,1	10 1,7
Jami xizmatlar		218 853,5	10 2,3	65 08,9	10 5,9	3 02,4	10 5,2
Eksport, AQSH dollar	mln.	151 27,7	86, 6	36 3,4	84, 3	3 ,9	14 5,5
Import, AQSH dollar	mln.	211 71,5	87, 2	17 6,3	65, 6	2 ,5	31, 8

Manba: Xo‘jayli tumani statistika boshqarmasi ma’lumotlari.

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib Qoraqalpog‘iston Respublikasi va tumanlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlar ustuvor vazifalarini va o‘sish nuqtalarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida Xo‘jayli tumanida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 483,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, mazkur ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasining jami sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishida 3,4% tashkil etdi. Tumanida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 3891,4 ming.so‘mni yoki o‘tgan 2021 yilning mos davriga nisbatan o‘sishi sur’ati 108,1% ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin.

Shunigdek, tumanda istyemol tovarlari ishlab chiqarilishi 204,2 mlrd.so‘mni tashkil qilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasining jami iste’mol tovarlari ishlab chiqarilishida 7,2% tashkil etdi. Tumanda ishlab chiqarilgan iste’mol tovarlari aholi jon boshiga 1653,0 ming.so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sishi sur’ati 101,3% ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin.

XULOSA

Shunday qilib, yuqoridalar asosida xulosa qilinganda tabiat - aholi - ishlab chiqarish tizimida tabiiy muhit holati, moddiy ne’matlarning ishlab chiqarish darajasi, aholi daromadlari va xarajatlarini ko‘rsatadigan omillar kompleksi boshqariladi. Bu omillarni tahlil va prognoz qilish hududiy tizimlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini shakllantirish maqsadlaridan kelib chiqqan holda turli xil vazifalarni bajarishni o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” Strategiyasi” to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23-oktabr 2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni.

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2023 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 11.XI.2020 yil 4889-son qarori

3. Svetlana, A., Popova., Ye., A., Kolpakova., A., K., Gorbacheva., Ye.Ye., Smotrova. (2021). Methodological approaches to the implementation of a multidimensional assessment of the level of socio-economic development of rural areas and their typology, taking into account the population density. Ekonomika i predprinimatelstvo, 598-604. doi: 10.34925/eip.2021.131.6.116

4. Усманов З.К., Ниязов М.А. Приоритетные направления развития промышленности в Республике Каракалпакстан // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2015. - №8. – с. 127-131.

5.Урунов С.Д. Ҳудудларнинг барқарор ривожланиш мақсадларини статистик баҳолаш ва прогнозлаш (Хоразм вилояти мисолида). Автореферат PhD. Тошкент. 2023.

6.Утегенов Қ.Дж. Қишлоқ хўжалигига хавлат давлат – хусусий шериклиги асосида лизинг муносабатларини такомиллаштириши. Автореферат PhD. Нукус, 2022.

7.Gabbarov S.N. Chorvachilikni rivojlantirisndan (Qjragalpogiston Respyblikasi Qo’ngirot tumani misolida). Aytoreferat PhD. Nukus, 2023.